

HUQUQIY XIMATLARNI PERSONLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

¹**Mahmudov Asilbek**

asilbekmahmudov05@gmail.com

¹Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

²**Javoxir Eshonqulov**

Ilmiy rahbar

Javoxireshonqulov0724@gmail.com

²Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi

Anontatsiya. Huquqiy xizmatlarni personlashtirish bugungi kunda yuridik sohada muhim ahamiyat kasb etib, xizmatlarni mijozlarning individual ehtiyojlarga moslashtirishga yo'nlatirilgan. Ushbu jarayon mijozlarga yanada samarali va shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rastish, ularning huquqiy muomalarni aniq va individual yechimlar bilan hal qilish imkoni beradi. Bugungi kunda texnologilarnining rivojlanishiga imkon yondashuvni yanada kuchaytirib, mijozlarga yanada keng imkomiyatlari beradi. Quyidagi insho huquqiy xizmatlarni personlashtirish texnologiyalarnining asosiy yo'nalishlari, avfzliklari, va kutilayotgan tendensiyalrni haqida batafsil yoritib beradi.

Kalit so'zlar. Huquqiy xizmatlarni personlashtirish o'rni, sun'iy entellekt, yuridik chatbotlar, malumotlar tahlili, prognozlash, blokcheyn texnologiyalri, huquqiy malumotlar himoyasi, yuridik ilovalar, mijozga yondashuv yaxshilash, va virtual haqiqat.

ЮРИДИЧЕСКИЕ УСЛУГИ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ

Махмудов Асилбек

asilbekmahmudov05@gmail.com

Ташкентский государственный юридический университет

Студент факультета уголовного правосудия

Джавахир Эшанкулов

Научный руководитель

Джавахиreshonкулов0724@gmail.com

Преподаватель кафедры киберправа Ташкентского государственного
юридического университета

***Аннотация.** Персонализация юридических услуг сегодня приобрела важное значение в юридической сфере и направлена на адаптацию услуг к индивидуальным потребностям клиентов. Этот процесс позволяет предоставлять клиентам более эффективное и персонализированное обслуживание, решать их юридические проблемы с помощью конкретных и индивидуальных решений. Сегодня она усилила подход к развитию своих технологий и предоставляет клиентам больше возможностей. В следующем эссе подробно описаны основные направления, преимущества и ожидаемые тенденции технологий персонализации юридических услуг.*

***Ключевые слова.** Роль персонализации юридических услуг, искусственного интеллекта, юридических чат-ботов, анализа данных, прогнозирования, технологий блокчейна, защиты юридических данных, юридических приложений, улучшения качества обслуживания клиентов и виртуальной реальности.*

LEGAL SERVICES CUSTOMIZATION TECHNOLOGIES

Mahmudov Asilbek

asilbekmahmudov05@gmail.com

Tashkent State Law University

Student of the Faculty of Criminal Justice

Javakhir Eshankulov

Scientific supervisor

Javakhireshonkulov0724@gmail.com

Teacher of the Department of Cyber Law, Tashkent State Law University

Annotation. *The personalization of legal services has gained importance in the legal field today and is aimed at adapting services to the individual needs of clients. This process allows to provide more effective and personalized service to clients, to solve their legal problems with specific and individual solutions. Today, it has strengthened its approach to the development of its technologists and provides customers with more opportunities. The following essay describes in detail the main directions, advantages, and expected trends of personalization technologies for legal services.*

Key words. *The role of personalization of legal services, artificial intelligence, legal chatbots, data analytics, forecasting, blockchain technologies, legal data protection, legal applications, improved customer experience, and virtual reality.*

KIRISH.

Mamlakatimizda huquqniy xizmatlarni personlashtirish rivojlanishi, barcha tarmoqlar va sohalarda, masalan, davlat boshqaruvi va sog'liqni saqlash kabi tuzilmalarda keng joriy etish bo'yicha kompleks chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Huquqiy xizmatlarning inson hayotidagi ahamiyati ortib borayotgan zamonda ushbu xizmatlarni mijozlar ehtiyojlariga ko'ra personalashtirish texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Personalizatsiya orqali xizmat ko'rsatuvchilar mijozlar ehtiyojlarini aniqlab, ular uchun individual yechimlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu texnologiyalar inson omili asosida ishlaydigan xizmatlar samaradorligini oshirish bilan birga, mijozlar va xizmat ko'rsatuvchilar orasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Huquqiy Xizmatlarni Personalashtirish

Texnologiyalar huquqiy xizmatlarni yanada samarali va moslashtirilgan qilishda asosiy vositalardan biriga aylandi. Texnologik rivojlanish natijasida yuridik sohada qo'llanilayotgan sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, blokcheyn texnologiyalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar xizmatlarni personalashtirishga katta hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, har bir mijozning ehtiyojlariga mos yondashish texnologiya yordamida yuridik xizmat ko'rsatuvchilarga xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Bunday yondashuv yuridik kompaniyalar uchun ham foydalidir, chunki ularni raqobatbardosh qiladi va mijozlarga yanada yaqin bo'lish imkonini yaratadi.

Sun'iy Intellekt va Yuridik Chatbotlar

Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyasi yuridik sohada katta imkoniyatlarni ochib berdi. Yuridik xizmatlarni personalashtirishda SI huquqiy jarayonlarni optimallashtirish, tezkor tahlillar o'tkazish va muammolarga yechim topishda samarali hisoblanadi.

Sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar yuridik xizmatlarda tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Bunday chatbotlar mijozlarga tezkor yuridik maslahatlar taqdim etish, sodda hujjatlar tayyorlashda yordam beradi. Masalan, mijozlar sayt yoki ilova orqali o'z savollarini chatbotga yo'llashlari va qisqa vaqt ichida ularga javob olishlari mumkin. Bu esa, ayniqsa, odatiy va kichik yuridik masalalar bo'yicha mijozlarning ehtiyojlarini qondirishda qulaylik yaratadi. Sun'iy intellekt orqali ishlaydigan chatbotlar quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Tezkorlik: Mijozlar oddiy huquqiy savollariga bir necha soniya ichida javob olishadi.

Yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlash: Chatbotlar mijozlar savollariga asoslangan holda xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash va moslashtirish uchun ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash imkoniga ega.

Ishning kamayishi: Oddiy yuridik masalalarni hal qilishda inson ishtirokini kamaytirib, yuridik mutaxassislarga murakkab masalalar bilan ishlashga ko'proq vaqt ajratadi.

Ma'lumotlarni tahlil va prognozlash

Yuridik xizmatlarni personalashtirish jarayonida ma'lumotlar tahlili katta rol o'ynaydi. Mijozlar bilan bog'liq keng hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan kelajakdagi xizmatlarni yanada moslashtirish uchun foydalanish mumkin. Ma'lumotlar tahlili yordamida mijozlarning ehtiyojlari, huquqiy masalalari va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi va xizmatlar shunga qarab moslashtiriladi. Bu esa mijozlarga yanada aniq va samarali xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Ma'lumotlar tahlili texnologiyasi yordamida mijozlarning o'tgan tajribalarini o'rganish va ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali, ularga mos huquqiy yechimlarni taklif qilish imkoniyati yaratiladi. Ma'lumotlar tahlili orqali xizmatlarni yaxshilashning asosiy usullari quyidagilar:

Mijozlar ehtiyojlarini prognozlash: Ma'lumotlar asosida mijozlarning ehtiyojlarini oldindan aniqlash va ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqish. Xizmat sifatini oshirish: Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali xizmatlarda mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish. Individula yondashuvni kuchaytirish: Mijozlarga malumotlarlariga asoslanib ularga maxsus xizmatlar va maslahatlar taklif qilish.

Milliy qonunchilik

1. **Elektron Hukumat va Notarius tizimlari:** O'zbekistonda "Notarius" avtomatlashtirilgan tizimi va huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish bo'yicha "Advice.uz" huquqiy axborot portali faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tizimlar aholiga shaxsiylashtirilgan huquqiy xizmat ko'rsatishni maqsad

qiladi. Davlat xizmatlari elektron tarzda taqdim etilib, huquqiy ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlashga qaratilgan.

2. **Huquqiy savodxonlikni oshirish:** "Huquqiy test" va "Huquq va men" kabi loyihalar orqali fuqarolar huquqiy bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda

3. **Ijtimoiy tarmoqlar va huquqiy targ'ibot:** Telegram, Facebook va boshqa platformalarda maxsus kanallar orqali huquqiy axborot materiallari keng tarqatilmoqda, bu esa xizmatlarni foydalanuvchilarga yaqinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining Lex.uz portali fuqarolarga o'zlari uchun tegishli bo'lgan qonun va qarorlarni osongina topish imkonini beradi. Bu orqali yuridik ma'lumotlarni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish amalga oshiriladi.

4. Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (2019), "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun , "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonunlar misol bo'ladi.

Xorijiy qonunchilik

1. **Estoniya:** Ushbu mamlakat dunyoda yetakchi raqamlashtirilgan huquqiy xizmat tizimiga ega. Elektron identifikatsiya (e-ID) orqali fuqarolar yuridik xizmatlarga onlayn kirish huquqiga ega. Bu xizmatlar huquqiy shaxslar ro'yxatdan o'tishdan tortib sud jarayonlarida qatnashishgacha keng qamrovni ta'minlaydi.

2. **AQSh:** Shaxsiylashtirilgan huquqiy xizmatlar uchun sun'iy intellektdan foydalanish rivojlangan. "LegalZoom" kabi platformalar orqali shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan yuridik hujjatlar va maslahat xizmatlari ko'rsatiladi.

3. **Buyuk Britaniya:** Bu mamlakatda raqamli sud xizmatlari tizimi faol ishlaydi. Masalan, onlayn sud jarayonlari va ariza topshirish platformalari orqali xizmatlar shaxsiylashtiriladi.

4. Yevropa Ittifoqi (EU): GDPR (General Data Protection Regulation) - shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha asosiy qonun.

Blokcheyn Texnologiyasi va Huquqiy Malumotlar Himoyasi.

Blokcheyn texnologiyasi huquqiy xizmatlarni personlashtirishda xavfsilikni oshirish va malumotlarni himoya qilishda juda muhim ahamiyatga egadir. Blokcheyn texnologiyasi malumotlarni xavfsiz saqlash ularga o'zgartirish kiritishni oldini olish va ularni himoya qilish imkoni beradi. Bu texnologiya ayniqsa maxfiy hujjatlar bilan ishlashda qo'l keladi, chunki blokcheyn yoradimda hujjatlar va malumotlar xavfsiz tarzda saqlanadi. Blokcheyn texnologiyasining huquqiy xizmatlarni qo'llanishning avfzaliklari quyidagilarda iboratdir. Maxfiylik va xavfsizlik: Mijozlarning huquqiy malumotlarni blokcheyn texnologiyasi orqali xavfsiz saqlanadi va uchunchi tomon aralashuvidan himoyalanaadi.

Hujjatlarning o'zgarmasligini taminlash: Blokcheyn texnologiyasi yoradamida hujjatlar saqlash va ularga o'zgartirish kiritish imkoni yuq chiqadi. Bu esa hujjatlarning haqqoniyligini saqlaydi. Uzoq muddatli saqlash:

Blokcheyn texnologiyasi yordamida hujjatlar uzoq vaqt davomida o'zgarishsiz saqlanadi va karakli vaqtda ishlatiladi.

Yuridik Ilovalar va Mijozga Yondashuvni Yaxshilash.

Mobil ilovalar va onlayn platformlar yuridik xizmatlarni mijozlarga yanada qulay qilib taqdim etish imkonini beradi. Mijozlar o'zlarining huquqiy masalalarni mobil qurilma orqali taezkr hal qilishi, hujjatlarni yuklash va saqlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mobil ilovalar yuridik xizmatlarni istalgan vaqtada va istalgan joyda foydalanish imkonini beradi. Yuridik xizmalarni mobil ilovalar orqali taklif qilishning avfzaliklari quyidagilar. Tezkorlik va qulaylik: Mijozlar yuridik xizmatlardan foydalanishda qulaylikga ega bo'ladi.

Onlayn maslahatlar: ilovalar orqali mojozlar yuridik masalahatchilar bian real vaqt rejimda boglanish va ulardan maslahatlar olish imkoniyartiga ega bo'lasiz.

Hujjatlarni oson boshqarish: Mijzlar o'z hujjatlarnin ilova orqali saqalash va ularga istalgan vaqtda kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kengaytirilgan Haqiqat (Augmented Reality, AR) va Virtual Haqiqat (Virtual Reality, VR).

Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalar kelajakda yuridik xizmatlarni personlashtirishda qo'llanishimiz mumkin. AR va VR texbologiyalarni yoradamida mijozlar sud jaroyoni virtual ishtirok etishlari, turli yurdik hujjatlarni ko'rib chiqish mumkin va

malumotlarga yanada chuquroq yondashuvlarni mumkin bo'лади. Bu texnologiyalari huquqiy ta'limotlarni o'rgatishda, hujjatlar tahlilda va sud jarayoni amlaga oshirish mumkin.

Bunda asosiy elementlar, yani vazifalarga keladigan bo'lsak:

- Markazning maqsad va vazifalarini belgilash va shu doirada ish ko'rish;
- Faoliyat yo'nalishlarini tanlab olish;
- Kutilayotgan natijalarni oldindan tahmin qilish;
- Moliyalashtirish manbalarini yaratish;;
- Tashkiliy tuzulmani tuzish.

Zaruriy harakatlar:

- Xalqaro doiradagi tajribalarni va tadqiqotlarni atroflicha o'rganish;
- Mahalliy aholi bilan zaruriyatlarni O'rganish;
- Ekspertlarning alohida tarkibini shakllantirish va ularga kerakli vazifalarni yuklash;
- Loyihaning dastlabki qismlarini tayyorlash ishlarini olib borish.

Yuqoridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda huquqiy tizimning zamonaviylashtirilishi, faqatgina texnologiyalarni qo'llash bilan

cheklanmaydi. Huquqiy xizmatlarni personlashtirish texnologiyalari huquqiy me'yorlarni va qonun hujjatlarini yangilash, ularni texnologik taraqqiyotga moslashtirishga hissa qo'shadi. Bu orqali, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, o'zgaruvchan global sharoitlarga moslashish va O'zbekistonni huquqiy xizmatlarni persomlashtirish texnologiyalarni yangi bosqichiga olib chiqish mumkin.

Personalizatsiya va Huquqiy Xizmatlarning Mohiyati.

Personalatsiya texnologiyalari har bir mijozning individual ehtiyoj va talablari asosida mosashtirilgan xizmatlarni taqdim etishga yo'nlatirilgan. Bugungi kunda xizmatlarning ko'plab sohalari- tibbiyot, bank-moliya, savdo va boshqa ko'plab sohalar- mijozlarni ehtiyojlarni aniqlash va unga muvofiq xizmat ko'rsatish texnologiyalarga foal foydalannmoqda. Huquqiy xizmatlarda ham bunday yondashuv nafaqat xizmat sifatini oshiradi va balki mijozlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi.

Huquqiy xizmatlardan personalizatsiya mijozlarning muomalarni aniqroq tushunishga va ularga alohida yondashishga imkon beradi. Misol uchun huquqiy maslahatni tayyorlashda mijozning oldingi yuridik tajribalari yoki uning hozirgi huquqiy holatini inobatga olinadi. Bu esa mijoz uchun eng mas'ul yechimlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratib beradi. Shu sababli huquqiy xizmatlarni personlashtirish qilish sohasidagi texnologiyalar mijozlar

va adavakatlar o'rtasidagi hamkorliknin yanada sifatli qilishda muhim rol o'ynaydi.

Personalizatsiya Texnologiyarning huquqiy xizmatlarda qo'llanishi.

Personalizatsiya texnologiyalarning huquqiy turli bosqichlarga qo'llanishi mumkin. Quyidagi ularning ayrim asosiy turlarga to'xtalib o'tamiz. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish: sun'iy intellekt mijozlarningoldingi huquqiy holartini va ularning ehtiyojlarni tahlil qilish oraqli yangi tavsiyalar bera oladi. Masalan advokatlarmijozlari haqida ko'proq malumotga ega bo'lishi va ularga qanday yordam kerak ekanligini aniq bilishi mumkin. Mashinaviy algoritmlar huquqiy maslahatlarni avtomagtik tarzda taklif qilish yoki huquqiy hujjatlarni yaratisgda yordam berishin mumkin.

Big data va tahliy vositalar: Mijozlar haqida to'palangan katta miqdridagi malumotlarni tahlil qilish orqali huquqiy xizmat ko'rsatishda yanad aniq va indiviidual yondashu;arni ishla chiqish mumkin. Bu jaroyoida mijozlarning ehtiyojlari va uning huquqiy muomalriga mos yechimlar ishlab chiqadi. Big data texnologiyalar mijozning ehtiyojlari va xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga yorddam beradi.

Mobil ilovalar va plotformalar: Mobil texnologiyalar yoradimada platformlar yuridik xizmatlarni mijozlarga yanada qulay qilib taqdimm etish imkonini beradi. Mijozlar o'zlarning huquqiy masalalarni mobil qurulma

orqali taezkr hal qilishi, hujjatlarni yuklash va saqlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mobil ilovalar yuridik xizmatlarni istalgan vaqtada va istalgan joyda foyadalanish immkonini beradi.

Chatbotlar va avtomatlashtirilgan xizmatlar: Oddiy huquqiy masalalar bo'yicha avtomatik maslahat beradigan chatbotlar va avtomatlashtirilgan xizmatlar kichik huquqiy muammolarni hal qilishda katta yordam beradi. Masalan, shartnoma tuzish yoki huquqiy savollarga javob berish kabi xizmatlarni avtomatlashtirish orqali vaqt va mablag'ni tejash mumkin. Chatbotlar foydalanuvchilarning savollariga real vaqtda javob bera oladi, bu esa huquqiy yordamni olish jarayonini yanada tez va qulay qiladi.

Huquqiy xizmatlarni personalizatsiya qilishning afzalliklari.

Personalizatsiya texnologiyalari huquqiy xizmatlarni ko'rsatishda bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

Tezkor javob berish: Personalizatsiya texnologiyalari yordamida xizmat ko'rsatuvchilar mijozlarning ehtiyojlariga tez va aniq javob bera oladi. Masalan, sun'iy intellekt mijozning oldingi holatlari asosida tezkor tavsiyalar beradi va bu yordamning samaradorligini oshiradi.

Xizmat sifati va ishonchni oshirish: Huquqiy xizmatlarda mijozlar uchun moslashtirilgan yondashuvlar ishonchni mustahkamlaydi va xizmat sifatini oshiradi. Bu esa mijozlarning qoniqish darajasini oshirish va xizmat ko'rsatuvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlikni ta'minlaydi.

Qulaylik va vaqtni tejash: Huquqiy xizmatlarda personalizatsiya texnologiyalaridan foydalanish xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtiradi va mijozlarga qulaylik yaratadi. Masalan, chatbotlar yoki avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tezkor javoblar berilishi xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartiradi.

Mijoz ehtiyojlariga moslashuvchanlik: Personalizatsiya texnologiyalari yordamida mijozlarning o'ziga xos ehtiyojlari inobatga olinib, ularga mos xizmatlar ko'rsatiladi. Bu esa mijozlarni qoniqtiruvchi xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshiradi va ular bilan yanada ishonchli aloqalar o'rnatishga imkon beradi.

Personalizatsiya texnologiyalari bilan bog'liq huquqiy va axloqiy muammolar

Huquqiy xizmatlarni personalizatsiya qilishda bir qator huquqiy va axloqiy muammolar ham yuzaga kelishi mumkin:

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik: Mijozlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda maxfiylik masalalari katta ahamiyatga ega. Personalizatsiya texnologiyalari shaxsiy ma'lumotlarni ishlatishi sababli, ushbu ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash muhimdir.

Sun'iy intellekt qarorlarining ishonchliligi: Sun'iy intellekt tomonidan qabul qilinadigan qarorlar noto'g'ri yoki to'liq bo'lmasligi mumkin, bu esa huquqiy maslahatlarga bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoli bor. Shu sababli, sun'iy intellekt tizimlarining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash lozim.

Avtomatlashtirilgan xizmatlarning aniqligi: Chatbotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar oddiy huquqiy masalalar bo'yicha maslahat bera oladi, ammo murakkab huquqiy vaziyatlarda bunday xizmatlar yetarli emasligi ehtimoli mavjud. Shu bois, mijozlarga haqiqiy huquqiy yordam kerak bo'lganda, mutaxassis advokatga murojaat qilish imkoniyatining mavjudligi ham muhimdir.

Misolar va amaliy tajribalar.

Dunyo bo'ylab yirik huquqiy kompaniyalar, masalan LegalZoom va Rocket Lawyer, personalizatsiya texnologiyalarini keng qo'llanilmoqda. Markazlar huquqshunoslar uchun malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etishi lozim. Bu huquqshunoslarni, ayniqsa, texnologiyalarni yuridik amaliyotda qo'llash, elektron hujjatlarni yaratish va boshqarish, sun'iy intellekt asosida maslahatlar berish kabi sohalarda tayyorlashni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, yangi texnologiyalarni kiritish va qo'llash uchun mavjud huquqiy tizimni o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish va sohadagi barcha ishtirokchilarni o'qitish zarur.

Ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt

Ma'lumotlar tahlili orqali mijozlar haqida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga mos keladigan huquqiy maslahat yoki xizmatlarni tavsiya etish imkoniyati yaratiladi. Bu ma'lumotlar mijozning yoshi, kasbi, yashash joyi, huquqiy muammosi turi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt algoritmlari mijozlarning oldingi muomala va huquqiy masalalari asosida ularga mos huquqiy yechimlarni tavsiya qilishda yordam beradi. Misol uchun, mijozning

o'tgan huquqiy masalalariga asoslanib, sun'iy intellekt shunga o'xshash huquqiy echimlarni taklif qilishi mumkin.

2. Chatbotlar va virtual yordamchilar

Chatbotlar va virtual yordamchilar mijozlarga huquqiy xizmatlar to'g'risida umumiy ma'lumot berish, oddiy savollarga javob berish yoki dastlabki huquqiy maslahatlarni taqdim etishda yordam beradi. Chatbotlar 24/7 xizmat ko'rsatishi mumkinligi sababli mijozlarga qulaylik yaratadi. Mijoz bilan interaktiv suhbat orqali chatbot unga kerakli huquqiy maslahatlarga yo'naltirishi mumkin, shu bilan birga shaxsiylashtirilgan xizmatlar taqdim etadi

3. Blokcheyn texnologiyalari

Blokcheyn texnologiyasi huquqiy hujjatlarni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, blokcheyn tizimida saqlangan shartnomalar va yozuvlar o'zgarmas va ishonchli bo'ladi. Bu texnologiya huquqiy jarayonlarda oshkoralikni ta'minlaydi, shuningdek, huquqiy hujjatlarni kuzatib borish va tasdiqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Foydalanuvchi profillari va mijoz segmentatsiyasi

Foydalanuvchi profillari orqali huquqiy xizmat provayderlari mijozlar haqida batafsil ma'lumot to'playdi va ularning ehtiyojlariga moslashgan xizmatlarni taklif qiladi. Bunda mijozning ehtiyojlari va afzalliklari inobatga olinadi.

Hozirgi vaqtda LegalTech kompaniyalari shaxsiylashtirilgan huquqiy xizmatlarni onlayn tarzda taqdim etuvchi platformalar yaratmoqda. Bunday

platformalar mijozlarga o'z huquqiy muammolarini yechish uchun zarur huquqiy hujjatlar yaratish, maslahat olish yoki advokat topish imkonini beradi. Mobil ilovalar orqali foydalanuvchilar shaxsiylashtirilgan huquqiy xizmatlardan real vaqt rejimida foydalanishlari mumkin, bu esa huquqiy maslahat olishni yanada qulay qiladi.

Personalizatsiya Texnologiyalarining Afzalliklari

Xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi: Texnologiyalar yordamida xizmatlarni tezroq va aniqroq ko'rsatish mumkin.

Mijoz qoniqishini oshiradi: Shaxsiylashtirilgan xizmatlar mijozlar ehtiyojlariga mos keladi va ular bilan yaxshi aloqalar o'rnatadi.

Xarajatlarni qisqartiradi: Maslahat va xizmatlarni avtomatlashtirish orqali odam resurslariga bo'lgan ehtiyoj kamayadi.

Cheklovlar va muammolar

Maxfiylik va xavfsizlik: Mijozlar haqida ko'plab shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash masalasini ko'taradi.

Huquqiy xavflar: Texnologiya yordamida qabul qilingan qarorlar huquqiy jihatdan to'g'ri bo'lmasligi mumkin va huquqiy mas'uliyat masalalarini keltirib chiqarishi mumkin. Umuman olganda, huquqiy xizmatlarni personalizatsiyalash texnologiyalari huquqiy xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshiradi, mijozlar uchun qulaylik yaratadi va huqu

XULOSA

Personalizatsiya texnologiyalari yoradamida huquqiy xizmatlar yanada qulay, sifatli va mijozlar ehtiyojlarga moslashuvchan bo'lishi mumkin. Shun bilan birga, bu jarayon ko'plab huquqiy va axloqiy masalalarni keiltirib chiqaradi. Texnologiyalarni oqillona qo'llash orqali huquqiy sohada mijozla ehtiyojlariga ko'proq mos keluvchi xizmatlarini tashkil etish imkoniyati mavjud.

FOYDALAGAN MANBALAR RO'YXATI.

1. Stanford Law School. (2023). Legal Tech Index Annual Report
2. World Economic Forum. (Asosiy sayt: gdpr.eu)
3. Baxshiev, A. va Yuldasheva, T. (2020). "O'zbekistonda yuridik texnologiyalar va elektron hukumatni rivojlantirish". Markaziy Osiyo huquqiy tadqiqotlar sharhi, 8(2), 45–61
4. LEX.UZ - Ўзбекистон қонунчилиги
5. Karimov, U. (2020). "Rivojlanayotgan mamlakatlarda adliyaga kirishni kengaytirishda yuridik texnologiyalarning roli". Xalqaro yuridik texnologiya jurnali, 14(3), 134–149.